

## YANGI TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK OLIGOFRENOPEDEGOGLARGA ZAMONAVIY YONDOSHUV

O'zMPU Pedagogika psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti  
Oligofrenopedagogika kafedrası o'qituvchisi **Gulyamova A.A.**

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oligofrenopedagogik ta'limning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion yondashuvlar va bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda qo'llanilayotgan yangi metodlar yoritilgan. Shuningdek, inklyuziv ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, multidisiplinar yondashuvlar va yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirish zaruriyati haqida so'z yuritiladi.

Jahon oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy tayyorlashni takomillashtirishga qaratilgan kreativ va innovatsion texnologiyalari ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Kompetentli yondashuv, yangi ta'lim stadartining determinatsiyasi sifatida, oligofrenopedagoglarni kasbiy tayyorlash mazmuni, uslublari, usul va vositalarini, shu jumladan kasbiy-metodik kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasini amaliyotga qo'llash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Respublikamizda so'ngi yillarda mustaqil ta'lim jarayonlari samaradorligini oshirish, bo'lajak oligofrenopedagoglarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda, ilg'or ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Bo'lajak oligofrenopedagoglarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish<sup>1</sup> vazifasi ustuvor etib belgilangan. Natijada bo'lajak oligofrenopedagoglarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarni kengayadi. Oligofrenopedagogik ta'lim — bu aqliy rivojlanishida orqada qolgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashga mo'ljallangan pedagogik yo'nalishdir. Mazkur ta'lim turi ko'proq psixologik-pedagogik reabilitatsiya, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish va ijtimoiy moslashtirishga qaratilgan.

Bo'lajak pedagoglar har xil rivojlanish darajasiga ega o'quvchilar bilan birgalikda ishlashga tayyorlanadi. Shuning uchun ularda moslashuvchanlik, sabr-toqat, empatiya va metodik yondashuvni yangilay olish ko'nikmalari bo'lishi muhimdir.

b) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

- Maxsus mobil ilovalar (masalan, *Pictello*, *Avaz*, *Speech Blubs*)
- Sensorli qurilmalar va interaktiv doskalar
- Vizual o'quv materiallari orqali o'quvchilarda bilimni mustahkamlash

c) Multidisiplinar yondashuv

Ta'lim jarayonida defektolog, psixolog, logoped va shifokorlar bilan hamkorlik qilish zarur. Bu esa holistik (ya'ni, kompleks) yondashuvni ta'minlaydi va bola ehtiyojini to'liq qamrab oladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".

d) Soft skills va emosional intellektni rivojlantirish

Zamonaviy pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki bolaga emosional yordam beruvchi shaxs hamdir. Shu bois, talabalarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirish muhim:

- Empatiya
- Jamoada ishlash
- Konfliktlarni hal qilish
- Emosional barqarorlik

e) Masofaviy va gibrid ta'lim formatlari

Pandemiya davrida o'zini oqlagan masofaviy o'quv metodlari hozir ham dolzarb. Ayniqsa, uyda ta'lim oluvchi nogiron bolalar bilan ishlashda bu usullar samarali hisoblanadi. Bo'lajak oligofrenopedagoglarni zamonaviy yondashuvlar asosida tayyorlash ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirish, bolalar bilan samarali ishlash, inklyuziv jamiyatga moslashish imkonini beradi. Shu boisdan, ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar, amaliy mashg'ulotlar, AKT vositalari va multidisiplinar yondashuvlar keng joriy etilishi lozim.

**1. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv**

- Bo'lajak oligofrenopedagoglar nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalarni egallashi kerak.
- "Bilim + ko'nikma + qadriyat" tamoyili asosida ta'lim jarayoni tashkil etiladi.

**2. Inkluziv ta'lim konsepsiyasi**

- Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim maktablariga jalb qilishda pedagoglarning **inklyuziv yondashuvni** bilishi muhim.
- Oligofrenopedagoglar turli yoshdagi va turli imkoniyatdagi bolalar bilan ishlashga tayyorlanadi.

**3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar**

- AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari), masalan: maxsus dasturlar, interaktiv platformalar, mobil ilovalar.
- Loyihaviy metod, o'yin texnologiyalari, vizual ta'lim vositalari.
- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim: har bir bolaning qiziqishi va imkoniyatiga mos dasturlar ishlab chiqish.

**4. Multidisiplinar hamkorlik**

- Oligofrenopedagog psixolog, logoped, defektolog, shifokor va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashni o'rganishi lozim.
- Ta'lim jarayonida jamoaviy ishlash ko'nikmalari shakllantiriladi.

**5. Innovatsion yondashuvlar**

- **Differensial va individual ta'lim** – har bir bola uchun alohida reja.
- **Art-terapiya, musiqa-terapiya, hayvonlar bilan terapiya** kabi yordamchi usullar.
- Virtual reallik va gamifikatsiya yordamida mashg'ulotlarni jonlantirish.

**6. Axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar**

- Bo'lajak pedagoglarda empatiya, mehr-shafqat, sabr-toqatni rivojlantirish.
- Jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash madaniyatini shakllantirish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Хайитов L.R. Bo'lajak defektologlarning ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish Ped. fan. dok. ...diss. – T., 2021.-24 b.
2. Ястребова Л.А. Формирование профессионально значимых качеств будущих педагогов-олигофренопедагогов: автореф. дис. ... канд. пед. наук – Ставрополь, 2008. – 21 с.
3. Gulyamova A.A. (2025). Bo'lajak oligofrenopedagoglarning metodik kompetentligini rivojlanishining pedagogik imkoniyatlari. multidisciplinary journal of science and technology, 5(5), 820–822.
4. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta'limi pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2013